

**Xulosा.** Allergiyada qo'llaniladigan dori vositalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat Reestridan oxirgi 4 yil davomida ro'yxatdan o'tish ko'rsatkichlari ifodalandi. Tahlilga ko'ra, eng ko'p ro'yxatdan o'tish ko'rsatkichi 2020-yilga to'g'ri kelib, 384 tani tashkil qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Suyunov N. D. Alleregicheskiy rinit: основные аспекты заболевания и характеристика лекарственных препаратов, используемых при фармакотерапии // Медицинский журнал Узбекистана. – Ташкент, 2012. – № 1. – С. 106–109.
2. O'zbekiston Respublikasi qayd etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar Davlat Reestri <https://www.uzpharm-control.uz/>

## TARKIBIDA YURAK GLIKOZIDLARI MAVJUD BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLER

**Saydullayeva Iroda Saydullayevna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti (PhD)

**Ziyotov Azamat Jurayevich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 3-bosqich talabasi

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada yurak glikozidlari mavjud bo'lgan dorivor o'simliklar haqida ma'lumot beriladi. Yurak glikozidlari yurak mushaklarining qisqarish kuchini oshirish, yurak ritmini normallashtirish va yurak yetishmovchiliginı davolash xususiyatlariga ega.

Maqolada: *Digitalis purpurea* Will, *Convallaria majalis* Will, *Adonis vernalis* Will, *Strophanthus gratus* Thomas, *Nerium oleander* Cloude kabi yurak glikozidlari manbai bo'lgan o'simliklarning dorivor ahamiyati, ta'sir mexanizmi va ehtiyojkorlik bilan qo'llash zarurati yoritilgan. Ushbu o'simliklarning noto'g'ri ishlatalishi toksik ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, ularidan foydalanish faqat shifokor nazorati ostida amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** yurak glikozidlari, dorivor o'simliklar, yurak yetishmovchiligi, aritmiya, farmakologiya, yurak kasalliklari, tabiiy dorilar.

**Mavzuning dolzarbliji:** Hozirgi kunda yurak-qon tomir kasalliklar dunyo bo'yicha o'lim darjasini yuqori asosiy kasalliklardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yurak

yethishmovchiligi, aritmiyalari va gipertoniya kabi holatlar ko'p uchraydi va ularni samarali davolash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurak glikozidlari tarkibida bo'lgan dorivor o'simliklar (*Digitalis purpurea* Will, *Convallaria majalis* Will, *Adonis vernalis* Will, *Strophanthus gratus* Thomas va boshqalar) qadimdan xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda yurak kasalliklarini davolashda ishlatilgan. Ushbu moddalar yurak qisqarish kuchini oshirib, yurak yethishmovchiligining asosiy alomatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda sintetik dorilarining ko'payishiga qaramay, tabiiy manbalardan olingan dorilar hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yurak glikozidlari tarkibidagi o'simliklarni o'rganish va ularni xavfsiz qo'llash metodlarini ishlab chiqish yurak kasalliklari bilan kasallangan bemorlar uchun katta ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu o'simliklarning farmakologik xususiyatlarini, ta'sir mexanizmini va ehtiyyotkorlik bilan ishlatish qoidalarini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. [1]



*Digitalis purpurea*



*Convallaria majalis*



*Strophanthus gratus*

*Digitalis purpurea* Will. Tulki yoki oddiy tulkigul mo'tadil Yevropaning ko'p qismida tarqalgan, zubturumdoshlari oilasiga mansub gulli o'simliklarning zaharli turi, o'tsimon ikki yillik o'simlik. Bo'yi 1-2 metrgacha boradi. Shuningdek u Shimoliy Amerikaning ba'zi qismlarida va boshqa mo'tadil mintaqalarda tabiiylashtirilgan. O'simlik mashhur bog' o'simligi bo'lib, ko'plab navlari mavjud. *Digitalis purpurea* yurak dorisi digoksining (shuningdek, digitalis yoki digitalin deb ataladi) asl manbaidir.

*Convallaria majalis*. Bahorda gul barglarida paydo bo'ladigan Shirin xushbo'y hidi, osilgan, qo'ng'iroq shaklidagi oq gullari bilan ajralib turuvchi o'rmon gulli o'simligi. Ko'p yillik o't o'simlik hisoblanib, ko'pincha rizomlar deb ataladigan yerosti poyalarini atrofga tarqatib katta koloniyalarni hosil qiladi. Bo'yi 15-30 sm, bir yoki ikkita bargi odatda 10-25 sm gacha boradi. Gullaydigan poyalari ikki barg va poya cho'qqisida besh-o'n besh guldan iborat novdasi bor.

*Strophantus gratus*. Bu o'simlik 25m gacha o'sishi mumkin bo'lgan yog'ochli liana,magistral diametri 10sm gacha.Uning xushbo'y gullari qizil yoki binafsha rang bilan qoplangan,pushti toj bo'laklari bilan oq gulchambarga ega. *Strophantus gratus* ning vatani tropic Afrika: g'arbda, sharqda va janubda Senegaldan Kongo Demokratik Respublikasigacha.U Tayvanda,shuningdek Trinidad va Tobagoda naturalizatsiya qilingan. *Strophantus gratus* mahalliy an'anaviy tibbiyotda ishlatilgan:o'simlik urug'idan olingan ouabain yurak yetishmovchiligin davolash uchun ishlatiladi.Bundan tashqari,o'q zahari sifatida ishlatilgan.[2], [4]

**Mavzuning o'rganganlik darajasi:** Yurak glikozidlari va ularning manbai bo'lgan dorivor o'simliklar uzoq yillardan beri farmakologiya va tibbiyotda chuqur o'rganib kelinmoqda.Yuqorida ko'rsatilgan dorivor o'simliklarning tarkibi,yurak glikozidlarning kimyoviy tuzilishi va ta'sir mexanizmi ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq qilingan. Farmakologiyada digitoksin, digoksin, strofantin, konvallotoksin kabi yurak glikozidlarning ta'siri,organizmga singish mexanizmi va terapevtik qo'llanilishi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.Xususan,ularning yurak mushaklarining qisqarish kuchiga ta'siri,aritmiyalarda samaradorligi va dozaga bog'liq zaharlilik darajasi haqida fundamental tadqiqotlar mavjud.

So'nggi yillarda bu dorivor o'simliklarning biologik faol moddalarini ajratib olish,ularni dorilar sifatida standartlashtirish va sintetik analoglarini ishlab chiqish bo'yicha yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.



**Qo'llanilishi:**Yurak glikozidlari,ayniqsa,yurak kasalliklarini davolashda muhim terapevtik vosita sifatida ishlatiladi.Ularning asosiy ta'siri yurak mushaklarining qisqarish kuchini oshirish(pozitiv inotrop ta'sir) va yurak ritmini normallashtirish (negativ xronotrop va dromotrop ta'sir)ga qaratilgan.

Yurak glikozidlari ba'zan yurak yetishmovchiligi, yurak aritmiyalari, gipotoniya, gipertoniya, akut yurak yetishmovchiligi kabi kasalliklarni davolashi ham mumkin.Uni diuretik ta'sirlarda ham qo'llasak ham bo'ladi.[3]

**Xulosa:**Yurak glikozidlari hayotimiz uchun eng kerakli muhim moddalar bo'lib hisoblanib, u bizga turli xil o'simliklar va dori vositalari orqali qabul qilinadi.Biz har bir o'simlikni asrab avaylashimiz kerak.Chunki ularni bir tomonidan go'zallik boshqa tomonidan aytganda inson salomatligi uchun muhim xususiyatlari mavjud.

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

- 1.Lourens L.Brunton Randa Hilal-Dandan,Byorn C.Knollman ”Farmakologiyaning asoslari” McGraw-Hill Educacion
- 2.Uillyam Charlz Evans,Jorj Edvard Treys “Farmakognoziya”
- 3.Meriadel J.O’ Neyl “Kemyoviy moddalar,dori vositalari va biologik moddalarning ensiklopediyasi”
- 4.Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti tomonidan”JSST tanlangan dorivor o’simliklar bo'yicha monografiyalari”